

30-aprel – umumxalq referendumi kuni

IJDODIY PARVOZ



2023-yil aprel № 4 (119) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

"**Kelajak uchun ovoz ber!**"

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
REFERENDUMI

2023



Eldor SHERMONOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalqchil Konstitutsiya bilan porloq kelajak sari

Joriy yilning 30-aprel kuni, mamlakatimizda muhim siyosiy tadbir – "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni bo'yicha umumxalq referendumi o'tkazildi.

Davlat, mamlakat, xalq qonunlari asosida boshqariladi. Qonunlar hayotning ma'lum davri va bosqichlari uchun mos va xos asosda ishlab chiqiladi. Davr olg'a bosib, hayot taraqqiyot asosida ilgarilagani, xalq ongi, shuri yuksalgani sayin qonunlar ham o'zgarib, takomillashib, yangilanib boradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida konstitutsiyaviy qonun loyihasi e'lon qilinishi va bu borada referendum o'tkazilgani ana shu hayotiy ehtiyojning natijasidir.

Konstitutsiyaviy qonunning yangi loyihasida, mamlakatimiz hayotining qonunchilik tizimidagi barcha o'zgarishlar hisobga olindi. Xususan, davlat boshqaruvi, fuqarolar huquqlari, siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy va ekologik huquqlar, sud hokimiyati, moliya, pul va bank tizimi, mudofaa va xavfsizlik masalalarda amaldagi Konstitutsiyada ko'zda tutilmagan ko'pgina moddalar kiritildi. Ayniqsa, konstitutsiyaviy qonunning yangi loyihasini yaratishda, xalq vakillarining barcha qatlamlarining fikrlari inobatga olingani uning nufuzini yanada oshirdi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan, fuqarolik jamiyatni institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining barcha shakllari erkin faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun konstitutsiyaviy asos yaratildi. Ayni paytda amalda bo'lgan Bosh qonunimizda fuqarolik jamiyatni institutlari, degan tushunchaning o'zi yo'q.

2

Muvaffaqiyat faqat intiluvchan odamgagina nasib qiladi. Qiyin sharoitda tushkunlikka tushadiganlarni esa juda kam yo'qlaydi.

JAVOHARLA'L NERU

Butun umringiz davomida orzungizga intiling va vaqtningizni behuda sarlamang. Chunki havoga uchgan vaqt sizdag'i barcha yaxshi narsalarni tortib oladi.

AFLOTUN

Inson tabiat shunday yaratilganki, u tez-tez xato qilib turadi: o'tkinchi hoyu havasni ko'pincha haqiqiy muhabbat deb o'ylaydi. Asl muhabbat og'riq bilan keladi.

CHINGIZ AYTMATOV



MUHAMMAD YUSUF
tavalludining 69 yilligi nishonlandi



Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri

HAQIQAT

Yuraging siqilib borib shahardan,
Sekin gapga solsang mo'min dehqonni.
Qodiriyni eslar yozuvchilaridan,
Artistlardan esa – Shukur Burhonni...


Sening tilla gardish ko'zoynaging bor,
Lekin berkitolmas u ham ginangni.
Nafis jild kitoblar yig'massan bekor,
Bekor olmagansan pianinangni.

Mana ko'rib qo'ying – Odaliska bu.
Ranglarga e'tibor bering, ranglarga.
Behzod chizgilari emas sizga bu.
San'atda yetmoq yo'l bo'lsin bizga bu
Nozikfahm rum – faranglarga.

Mana bu Otello. O'sha xabash shox.
Sahna – Ovrupodir (yana o'sha yoq).
Dunyoda hech kimda yo'q bunday ovoz,
Dunyoda hech kimda yo'qdir bu nigoh!..

Deysan: bu kitobim ichi to'la dur;
Deysan: bu kitobim bitta nusxdadir;
Tasvir o'zi hayot, jumla qisqadir;
Lekin baribir...

Lekin baribir;
Yuraging siqilib borib shahardan,
Sekin gapga solsang otang – dehqonni,
Qahhorni eslaydi yozuvchilaridan,
Artistlardan esa Halimaxonni.



Qalblarga ko‘chgan xalq shoiri

*Yuraklarda yurmagini,
Oh, oldindan bilgan qush.
Har o‘zbekning yuragini,
O‘ziniqi qilgan qush.*

Xalq shoiri – Muhammad Yusuf samimi, sofdir, halol, mehribon, rostgo‘y, vatanparvar va xalqchil inson edi. O‘zining qisqa umri davomida go‘zal she’rlar, xalqning dardi, orzu-armonlari kuylangan asarlarni yaratdi. Shoир muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yordan ranjiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi.

Shoирning xotirasini abadiylashtirish borasida yurtimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Nafaqat yurtimizda, balki O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining o‘zida ham Muhammad Yusuf shaxsiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Institutimizda birinchi kurs talabalari uchun “Muhammad Yusuf – Vatan kuchisi” fani qo‘yilgan bo‘lib, bu talaba yoshlarning shoир ijodini chuoqroq anglashga imkon yaratadi. Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf hayot yo‘li va ijodini kengroq ko‘rsatish uchun O‘zbekkino va O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamkorligida, 2021-yilda “Ulug‘imsan, Vatanim!” hujjatlari filmi suratga olindi. Ssenariy muallifi Muhammad Yusufning shogirdlaridan biri “Shuhrat” medali sohibi, shoир Iqbol Mirzo, “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi mudiri, rejissyor, kinooperator, professor Iqbol Meliqo‘ziyev boshchiligidagi asarni suratga olish jarayonlari boshlandi.

Qisqa metrajli ushbu film muvaffaqiyatlari tarzda suratga olindi. Bu filmning adib hayotiga bag‘ishlangan avvalgi filmlardan farqi shundaki, real hayotda sodir bo‘igan voqealar filmga ko‘chgan. Film Muhammad Yusufning bolalik chog‘laridan boshlangan bo‘lib, uning kichiklikdan qat‘iyatli, serg‘ayrat bo‘ganligini ko‘rishimiz mumkin. Odadta, shoirlar o‘ychan, xayolparast va anchagina sokin tabiatli inson bo‘ladi. Shoirni juda mehribon, deya ta‘rifladik. Bu bejiz emas. Kishilar mehribonlik qilishi mumkin, qachonki, o‘z yaqini bo‘lsa. Ammo ushbu hujjatlari filmda guvoh bo‘lamizki, Muhammad Yusuf inson ajratmagan. So‘zimizning isboti: film voqeasida, Muhammad Yusuf umuman tanimagan bir begona qizga institutga o‘zining o‘rniga kirishiga ruxsat berган kadrda namoyon bo‘ladi. Buni yaxshilikka, balki mehribonchilikka yo‘yarsiz, ammo asosiy e‘tiborimizni qaratishimiz kerak bo‘igan narsa, bu begona qizning taqdiriga shoirning befarq emasligidadir.



Filmni tomosha qilish davomida, Muhammad Yusufning nihoyatda qat‘iyatli bo‘lganini bilib olamiz. Yosh shoир va uning akasi dadasidan beso‘roq uydagи mashinani haydab chiqib ketishadi. Buni qarangki, mashinani to‘liq boshqarishni bilmagan akasi, mashinani daraxtga urib yuboradi. Muhammadjonqa ham, akasiga ham hech shikast yetmaydi, ammo mashinani urib yuborganligi va so‘ramasdan olib chiqib ketishgani



Dildora IRGASHOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta‘lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

uchun dadasidan qattiq dakki eshitishadi. Shunda dadasi mashinani kim urib yuborganligini so‘raganida, Muhammadjon qo‘rqmasdan “men”, deya javob beradi. Zero, mashinani boshqargan akasi bo‘lsa-da, akasining gap eshitishini xohlamasdan aybni o‘z bo‘yniga oladi. Albatta yosh bola uchun bu katta jasorat. Bularning barchasi real hayotda sodir bo‘lgan, ya‘ni Muhammad Yusufning akalari bolalik paytdagi bu voqeaga guvohlik berishgan.

Vatan! Bu so‘zga har kim har xil ta‘rif beradi. Muhammad Yusuf uchun esa, vatan bu – xalqining ulug‘ farzandlari, ona tuprog‘i, Navoiysi, Boburi, Mashrab va boshqa ulug‘ siyomalaridir. Sabab shundaki, yosh, endigina ulg‘ayib kelayotgan qalblarga vatan tuyg‘usi buyuk bobolarimizning yozib qoldirgan asarları va purhikmat so‘zları orqali singadi. Shoир umrinning so‘nggida ham elim deb, yurtim deb yonib yashadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ellikqal‘a tumanida bo‘lib o‘tgan she‘rlar tanlovida, birinchi o‘rinni olgan qizni taqdirlash uchun Muhammad Yusuf tanlanadi. Shu kuni Muhammad Yusuf Qoraqalpog‘istonga yo‘l oladi. Afsuski, shu kunda o‘zbek xalqi o‘zining jonkuyar, vatanparvar farzandidan ayrıldi.

Nega aynan Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bizning institutimizda chuoqroq o‘rganiladi? Buning sababi shundaki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-avgustdagagi 502-soni “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘tasida targ‘ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida atoqli adiblar, shoир va yozuvchilar ijodini o‘rganish institut va universitetlarga berildi. Shu asnoda Muhammad Yusuf ijodini o‘rganish bizning institutimizga topshirildi. Adiblar xiyoboniga shoirning muhtasham haykali o‘rnatildi. Adib shaxsiga hurmat va e‘tibor sifatida O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida “Muhammad Yusuf” xonasi ochilgan bo‘lib, uning ichi Muhammad Yusuf xotiralari bilan yog‘rilgan fotosuratlar bilan bezatilgan. Bu xona talabalar ijodxonasi hisoblanadi. Yuqorida aytilan “Ulug‘imsan,Vatanim!” filmi ingliz tiliga o‘girildi va xorijiy filmlar festivaliga tavsija etildi. Zero, o‘zbek elining ulug‘ farzandi haqida butun dunyo xabardon bo‘lsin!

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Muhammad Yusufning hayoti va ijodini o‘rganishimiz bejiz emas. Shoир o‘z davrida kelajak avlodga munosib meros qoldirgan bo‘lib, uning yaratgan she‘rlari va dostonlari betakrordir. Muhammad Yusuf – qalblarga ko‘chgan xalq shoирi. Adibning she‘rlari, yaratgan asarları o‘chmas va o‘lmasdir.

Qalbi go‘zal edi...

Muhammad Yusuf haqida gap ketganda kim erka shoir, yana kim kuychi edi, yana kim nimadir deb ta‘rif beradi va har kim bu borada o‘zicha haqdir.

Собир ЎНАР,
ёзувчи

O‘zi Muhammad Yusuf adabiyotga kech kirib keldi. Esingizdadir, o‘scha “Yoshlik” jurnalida tanklar ham paxta teradi hali, degan mazmundagi she‘ri chiqqanda bir kunda mashhur bo‘lib ketuvdi. Biz talabalar hayron bo‘lganmiz: yoshi Sirojiddin Sayyiddan ham katta, qayerda biqinib yurdi ekan, tavba... Nazarimda, Muhammad Yusuf rostdan ham adabiyotga bir kunda kirib kelib, o‘zining muqim o‘rnini topib olgandek...

Muhammad Yusuf garchi juda mashhur bo‘lib ketgan bo‘lsa-da, nufuzli nashriyotlarga qo‘lyozma ko‘tarib borishni o‘ziga ep ko‘rmasdi. Xususiy nashrlar qalam haqi bermasa-da, 50-100 ta kitobni o‘ziga ortiqcha chiqarib berishni va’da qilsa, shoir rozilik beraverardi. Bir kuni do‘kondan u kishining kitobidan sotib oldim-da, dastxat yozdirish uchun bordim. Aka menga kulib qarab turaverdi. – San kichkina ijodkormassan, o‘g‘lingning ismini ayt, – dedi so‘ng. Kitoba esa “Oloviddinjon! Yaxshi odam bo‘ll!” deb yozib qo‘ydi...

Shunda men talabalik davrimiz, o‘shanda matbuotda tez-tez ko‘rinadigan shoirlar Miro Kenjabeck, Sirojiddin Sayyid, Muhammad Yusuflarning birinchi kitoblari chiqishini kutganimiz, “Maktabularim”, “Ruhim xaritas”, “Tanish teraklar” nashr etilganida o‘nlab she‘rlarni yod olib, paxta dalalarida baytbarak qilganlarimizni esladim. U vaqtarda she‘r, kitob shu taxlit bayram qilinganini akaga aytdim. Endi she‘rlaringiz qo‘shiqchilar tilidan tushmaydi, shoirlarning vatanparvarisiz, dedim. U odam mening ikki yelkamdan ushlab tikilib goldi. – Qo‘yaverasiz-da endi, Sobirov, – dedi-yu, tez ortiga o‘girildi. Maqtovni uncha xushlamas edi...

Keyin Muhammad aka o‘zi tez orada arbobga aylandi. Avval “Xalq shoiri”, oradan ko‘p o‘tmay deputat bo‘ldi. Shogirdlari judayam ko‘p edi. Shularning ichidan kamtarrog‘ini tanlab, “yur”, deya birga ketaverar edi. U bilan ham aslida emranishib yotmas edi.

Odamlar, ayniqsa, qo‘shiqchilarining tez mashhurlik kasalligiga yo‘liqqanini ko‘ramiz. Bu holat ijodkorlar orasida ham uchraydi. Agar shoir zotida shu kasallik urchisa, Muhammad Yusufga birinchi galda yopishishi kerak edi, o‘laymanki, shunda tantiqliq qilish ham shoirimizga yarashib turishi mumkin edi. Lekin shoir mashhurlikka beparvo edi. Chindan ham akada kibr-havo yo‘q edi. Ustozlariga, ayniqsa, Abdulla Oripovga nihoyatda sodiq ekanini ko‘p kuzatganman...

Shoир kunlarning birida, saylanma kitob chiqardi. Hammaga tarqatdi. Adashmasam, tug‘ilgan kuni yaqin edi. To‘satdan biz ishlaydigan tahririyatga kelib, bir do‘stimizga: “Siz “Zarafshon” restoranida o‘tadigan taqdimot ssenariysini yozib berasiz”, deb qoldi. Do‘stimiz dovdirab qoldi: “Qanday bo‘larkin, bunaqa narsaga ishim tushmagan”. – Yo‘q, siz boplaysiz, – dedi Muhammad aka. – Tamom-vassalom. Shunday dedi-da, shoir chiqdi-ketdi.

Do‘stimiz, qo‘lida “Sayylanma”, menga qaraydi. – Akaning ijodiniyam zo‘r bilmayman. Qo‘shiqlarini bilamiz-ku, lekin... – Urinib ko‘ring, – dedim men. Ajabki, do‘stimiz ertasi kuniyoq yigirma sahilaflik ssenariy yozib keldi. – Akaning she‘rlari qiyomat, – dedi u hayajonlanib. – Yonimizda yurgani bilan baribir ijodini chuqur bilmas ekaniz.

U ssenariyi shoirga berdi. Bir mahal Muhammad Yusufning o‘zi kelib, do‘stimizni quchib, alqay ketdi. – Zo‘r, aytmabmidim, o‘ylaganimdanam zo‘r! Rahmat, uka! – dedi.

O’sha kunlari uyushma rahbariyati Ellikqal‘aga yoshlar seminariga tayyorlanishayotgan edi. Tez orada bir guruh shoir va yozuvchilar Abdulla aka boshchiligidagi Nukusga uchib ketishdi. Uyushma raisining yoshlar bilan ishslash bo‘yicha o‘rinbosari sifatida Muhammad Yusuf ham birga edi. Va... o‘zimiz bilgan qisqa tarix: aka safardan qaytib kelmadi. Shifoxonada behush yotganini eshitib, uch kun yurak hovuchlab turdi. To‘ritinci kuni esa... biz istamagan mudhish xabarni eshitdi...

Kecha, ko‘z o‘ngingda g‘ayrati toshib turgan qalbi go‘zal inson, kuychi shoir, mehribon do‘st va og‘a... to‘satdan... Ajalga hukm yo‘q ekan!



Muhammad Yusuf muallif bilan

Temur bobomni yod etib...

Bizning yurt – ulug‘ allomalar, buyuk mutafakkirlar yurtidir. Shu jumladan, boy ilmiy merosga ega millatdir. Biz bugun o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk turkiy sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur haqida so‘zlamoqchimiz. Insoniyat tarixida eng katta imperiyalardan biri – Temuriylar imperiyasi asoschisi Amir Temur 9-aprel kuni 686 yoshga to‘ldi. Amir Temur 1336-yil 9-aprel kuni Kesh yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan.

Amir Temur yoshlik chog‘laridan oq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashq‘ul bo‘lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo‘lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og‘ir, bosiq, teran fikrli, idrokli hamda nihoyatda ziyarak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo‘lgan. Shu tufayli o‘sprinlik chog‘laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do‘stlarni jaib qila olgan.

Amir Temur buyuk davlat asoschisi hisoblanadi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan sultanatga asos soldi. Amir Temur davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning: “...davlat ishlaring to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”, degan so‘zlari buning yorqin dalilidir.

Sohibqironning bonyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu ko‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Amir Temur umr bo‘yi bonyodkorlik bilan mashq‘ul bo‘lgan. Uning: “Qay bir



**Saida ERGASHEVA,
“Kutubxona-axborot
faoliyati” ta‘lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi**

joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim”, degan so‘zlari buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqe va sevinchli hodisani muhtasham me’morlik obidasu barpo etish bilan nishonlash odat bo‘lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahan va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mam-lakatda hashamador imorat-u inshootlar bino qilganlar.

Amir Temur zabit etgan mamlakatlarning bir qatorlarini qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda

masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsa-da, lekin asosiy e’tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmonligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo‘lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi. Amir Temur Keshni Mavarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar “Qubbat ul-ilm val-adab” unvoniga ega bo‘ldi.

Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida, ayniqsa gullab yashnadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi. Har yili yurtimizda Amir Temur tavallud ayyomi keng nishonlanadi. U yaratgan qadamjolar ziyorat qilinadi va porloq xotirasni yodga olinadi.



AMIR TEMUR

o‘git va yo‘riqlaridan

Azmu jazm bilan ish tutdim. Biror ishni qilishga qasd etgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim.

Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim.

Do‘st-dushmanдан kimki menga iltijo qilib kelgudek bo‘lsa, do‘stlarga shunday muomala qildimki, do‘stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo‘ldimki, ularning dushmanligi do‘stlikka aylandi.

Eng baland minora ham yerdan ko‘tarilgay.

Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim.

Shijoatli kishilarni do‘st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

Hech kimga g‘azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g‘azabiga duchor bo‘lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb.

Menga iltijo qilib kelgan badkirdor odamlar xoh menga yaxshilik qilgan bo‘sinlar, xoh yomonlik, saltanat taxtiga o‘tirganidan keyin ularni xayrehsونلار bilan xijolatga qo‘ydim. Menga qilgan yomonliklarini qilmagandek ko‘rib, ularni yomon qilmishlari daftari ustiga afv qalamini tortdim.

Hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirdim. Sofidl kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko‘ngli buzuq qo‘rqoqlarni majlisimdan quvib yubordim.

MA’NAVİYAT – MILLAT KO‘ZGUSI

Bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir.

Sh.M.Mirziyoyev

Ma’naviyat va madaniyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgani yo‘q, albatta. Bular xalqning, millatning asrlar davomida orzu qilib, intilib kelgan maqsad-muddaolarining natijasi sifatida shakllanadi. Lekin bu shunchalik murakkab va qiyin kechadigan jaroyonki, uni to‘liq tasavvur etish uchun o‘sha xalqqa yoki millatning qadimiy tarixini ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazishimiz, tushunib, anglab yetishimiz kerak bo‘ladi. Yana bir narsani yaxshi bilib olishimiz kerak. Ma’naviyat ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bu degani uning paydo bo‘lishi, takomillashishi, avloddan avlodga o‘tishi inson faoliyati bilan bog‘liq. Bundan ko‘rinib turibdiki, ma’naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Chunki dunyodagi jonzotlar ichida faqat odamgina o‘z oldiga maqsad qo‘yib, o‘ylab-fikrlab yashaydi.

Ma’naviyatshunos olim A.Erkayev bu borada quyidagi mulohazalarni yozadi. “Tabiatda ma’naviyat yo‘q. Biz hayvonot dunyosi turlari, xillari, nasli va boshqa belgilarga qarab ularni odobli va diyonatli, nozik didli, xudojo‘y yoki vijdonsiz, kufr botqog‘iga botgan, deya olmaymiz. Agar yanada aniqroq va jonli misol yordamida aytadigan bo‘lsak, mana bu to‘ng‘iz va eshak-nozik ta‘b, nafosat oshuftalar, ana u ikkalasi o‘ta xudojo‘y, mana bular esa noinsof va ta‘magir – degan iboralarga aql bovar qilmaydi”.

Bundan ko‘rinadiki, biz ma’naviyat va u bilan bog‘liq tushunchalar haqida gapirganimizda, faqat insonga xos yuksak tuyg‘ular, hislar, ko‘nikmalar, hayotiy tajribalardan kelib chiqqan hollarda gapirishimiz va ular orqali amaliyotga sinashimiz

mumkin. Albatta, ma’naviyatning axloqiy mezonlari inson tarbiysi va madaniyatida alohida o‘rin tutib, shaxs va jamiyat ma’naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllaridir. Masalan, urf-odatlar, an‘analar, vatanni sevish, o‘z xalqi va millatni hurmat qilish, ota-onasini e‘zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash, o‘z ishiga ma’suliyati bo‘lish, o‘z vatanini taqdiriga daxldorlik hissi kabi yuksak ma’naviy fazilatlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan.

Ma’naviyatning axloqiy negizlari muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma’noda milliy muhit ularning yanada rivojanishiga ko‘mak beradi, jamiyat a‘zolari bundan o‘zlariga kerakli sifatlarni oladi. Aynan shu belgilar kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ulardagи mushtaraklikni yorqin namoyon etadi. Ma’naviyatning axloqiy mezonlarini odob, axloq, insonparvarlik, ezzulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, ma’naviyatning axloqiy fazilatları ma’naviyat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ma’naviyat – inson, axloq, jamiyat va davlatning intellektual salohiyati, ma‘rify kuch-qudratidir. Buni quyidagi mezonlar orqali o‘rgansak bo‘ladi:

• *jamiatdag‘i ijtimoiy munosabatlar va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarini tartibga soluvchi talab va qoidalar majmui;*

• *xalq va jamiyat hayoti bilan aloqador ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlar, an‘analar, ezu g‘oya va maqsadlar tizimi;*

• *axloq, madaniyat, ma‘rifat, din va ta‘lim-tarbiya tizimidan iborat yaxlit ma’naviy hodisalar majmui;*

• *ma’naviy jarayonlar, insonning o‘zini va o‘zi yashayotgan dunyonni takomillashtiruvchi ijodi faoliyati;*

• *inson kamoloti, shaxsiy-axloqiy xususiyatlar va ma‘rifiy fazilatlar;*

• *komillik tuyg‘usi va ma’naviy yuksalish;*

• *moddiy, ma’naviy, madaniy va ma‘rifiy poklanish va yuksalish kabi tuyg‘ular orqali insonning jamiyatdag‘i ma’naviy qiyofasini ko‘rish mumkin.*

Jamiyat ma’naviyatini shakllantiruvchi mezon va tamoyillarni qomusiy olimlarimiz yaratgan ma’naviy meroq namunalari orqali anglaymiz, ular tomonidan yaratilgan axloqiy fazilatlarni o‘z hayotimizga singdirib boramiz. Misol uchun, buyuk geograf Abu Rayhon Beruniy, matematika fanining asoschisi Al-Xorazmi, tibbiyot olamining sultonib Ibn Sino, buyuk astronom



**Baxtiyor SAMIYEV,
“Madaniyat va san‘at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish” yo‘nalishi
1-bosqich talabasi**

Mirzo Ulug‘bek, islom dini olimlari Buxoriy, at-Termizi, Ahmad Yassaviy, g‘azal mulkingin sultoni Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ulug‘ allomalar ma’naviyati keng, bilim darajasi yuksak insonlar bo‘lishgan. Bizlar ushbu shaxslarning milliy ma’naviy va madaniy meroqini o‘rganishimiz va asrab-avaylashimiz shart.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov inson ma’naviyati haqida juda yaxshi mulohaza yuritgan, ya’ni, “Ma’naviyat insonning qon-qoniga, suyak-suyagiga yillard davomida ona suti, oila tarbiysi, ajodlar o‘giti, vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba‘zida achchiq, ba‘zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib, singib boradi”, – degan edi. Chindan ham ma’naviyat insonning qon-qoniga, suyak-suyagiga singadigan tuyg‘ular, qarash va ko‘nikmalar mezonini ekan, demak, ularni ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydi, rangi yoxud hidini bilish mumkin emas. Ma’naviyat inson ruhiyatida, qalbi va ongida shakllanib ulg‘ayadi va inson ruhiyatini poklaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ma’naviyat millatning, xalqning ma’naviy qiyofasidir. Ma’naviy qiyofasiz inson o‘zligini yo‘qotadi. Uning uchun na vatan, na ona yurt, na mahalla-ko‘y, na oila mavjud bo‘ladi. Biz ma’naviyatimizni va o‘zligimizni anglashimiz uchun doimo ma’naviy va madaniy ongimiz va saviyamizni boyitib borishimiz zarur.



Mitti hikoyalar



Ashurali JO'RAYEV,
O'zDSMI dotsenti,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

NON VA DORI

U har kuni ishga boradi va horib-tolib qaytadi. Avval do'konga kirib, uzoq saralab non xarid qiladi. So'ng ko'chaning narigi tomonidagi dorixonaga kirib, talashib-tortishib dori sotib oladi.

Avval maza qilib non yeidi, so'ng huzur qilib dori ichadi.

UCHTA BANAN

U ishdan qaytishda uch nafer farzandiga goh uch dona banan, goh uch dona shokolad xarid qiladi. Ko'proq banan albatta. Bundan bolalar benihoya xursand bo'lib, bananni olishlari bilan uyni boshlariga ko'tarishadi.

– Dadam banan olib keldilar, – deb qiyqirishadi. So'ng qo'llaridagi bananlarni po'stidan ayirib, bir-birlariga maqtanib yeya boshlaydilar.

Bobo bilan buvi bir-birlariga sezdirmasdan qarab, astagini tamshanib qo'yadilar. Ikkalasi ham beixtiyor "men bolamga, bolam bolasiga", – degan maqolni eslaydi...

KAPALAK

Shahar har kungidek ulkan g'ala-g'ovur og'ushida. Asabbuzar avtolar ko'chalarni battar shovqin-suronga to'ldirib yuborgan. Odamlar na g'ala-g'ovurlarga, na shovqinlarga aslo parvo qilmay, shoshgani shoshgan. Shovqin allaqachon ularning kundalik hayotiga singib ketgan.

Ko'chalar liq to'la shovqin. Metrolar tirband. Militionerning hushtagi, avtolarning chinchirig'i birzum tinmaydi. Baqir-chaqirdan odamlarning quloqlari qomatga kelgan. Asabiylar, telba-teskar suhbatlar avj pardalarga ko'tariladi:

- Yo'l bersangiz-chi, angraymay!
- Muncha hovliqasiz?..
- He, og'zingizni yuming.
- Siz ham og'zingizga qarang.
- Og'izdan oldin ko'zga qarash kerak, galvars!
- Ko'rib-ko'rmaslikka oladi-ya.
- Hozir hamma shunaqa...
- Qulog'iyam karga o'xshaydi.
- Faqat meniki emas.

Yana avtolar faryodi. Baqir-chaqir avjida. Shahar shovqinga g'arq bo'lgan. Qaysidir ko'chada vodoprovod quvuri yorilgan shekilli, buldozer hayqirib yer kovlayapti. Yana bir ko'chada ola-tasir asfalt yotqiziyapti... Tirband ko'chadan tobut ko'tarib borishyapti. "Bir tekis ko'taringlar", – degan shovqin eshitiladi.

Musiqani "vadavang" qo'yib, qiy-chuv qilib ketayotgan to'y mashinalari tobut ko'targanlarni quvib o'tmoqchi...

Yo'lak chetidagi turfa gullar qiyg'os ochilib yotgan kichik gulzorda bir beozor kapalak ohista uchib yuribdi. U shovqinga ham, baqir-chaqirga ham parvo qilmay mayin qanot qoqadi. Zavqlanib uchadi. Ana, kapalak bir gulga qo'nib, uning hididan mast bo'lib, boshqa guldan zavq olish uchun yana qanot qoqdi. U guldan-gulga qo'nib, ulardan bo'sa olayotganga, gullar bilan sirlashayotganga o'xshaydi... Uning shovqinzor bilan aslo ishi yo'q...

ONA

Ona bedavo dardga yo'liqdi. Davoning narxi baland edi...

Onaning besh farzandi bor edi. Ikki o'g'il va uch qiz. Ular uyi, joyli bo'lib, bir-biriga suyanib yashashardi. Chunki ularning ham farzandlari bo'lib, ro'zg'orlarini amallab tebratishardi. Otalari ikki yil burun qazo qilgan edi...

Farzandlar o'zaro maslahatlashib qo'llaridan kelgancha onalariga madad bo'lish, biror yordam berish uchun yig'ildilar. Ona ularning hol-ahvolini ko'rib, dardini doston qilmadi. – Do'xtirlar tashxis qo'yishda yanglishibdi, – dedi. So'ng sekin shivirladi – men soppa-sog'man, jonim bolalarim, hech narsani o'ylamanglar, tashvish chekmanglar.

Bolalar asta boshlarini ko'tarib, bir-birlariga "xayriyat" deganday yengil nafas oldilar. Ona ulug', bolalar esa hali bola edi.

Ona, sho'rlik va mehribon ona bir haftadan so'ng vafot etdi. Dono va oqila ona dardini o'zi bilan olib ketdi.

Aka-singil

– Assalomu alaykum, akajon! Xayrli tong. Yaxshi dam oldingizmi? Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman! Mana bu sovg'a sizga.

– Va alaykum assalom, mitti farishtam! Katta rahmat, nima bu?

– Ochib ko'ring, men hozir kelaman.

Nodir to'rthurchak zarqog'ozga o'ralgan sovg'ani ochdi-yu, o'zi va singlisi Nozilaning bir-biriga suyanib turgan, qo'lda chizilgan suratni ko'rib sevindi. Nozila uzun sochiga lenta taqib, maktabga tayyorgarlik ko'rarkan, Nodir singlisining burnidan chimchilab "rahmat", deya lo'ppi yuzidan o'pib qo'ydi.

Oradan yillar o'tdi. Nodir uylandi. Ishga kirdi, lavozimi oshdi. Mana endi fe'lida anchagina o'zgarish bo'ldi. Ota-onasi ikki qiz va bir o'g'ilni uylujoylik qildik, endi kenjamizni ham uzatib olsaydik, deya orzu-istikni ko'ngliga tugib qo'yan damda kim o'yabdi, deysiz boshga kulfat yog'ilishini.

Nodirning uylanganiga uch yil bo'lsa-da, hanuz befarzand edi. Shundan bo'lsa kerak jizzaki, sal narsaga uydagilarni jerkip berar, borgan sari fe'l torayib borardi. Nozila, akasi o'zgarib unga ko'p ham e'tibor bermayotganidan, uni endi "mitti farishtam", deya erkalamayotganidan xafa edi. Nodir xotinini avaylab, ko'proq singlisi va onasiga yumushlarni buyurar, biroz tartibsizlik yoki Nozilaning bo'sh qolganini ko'rsa: – Ishlaringni qil, kelinoinga qarash, u charchagan. Hammangni bir o'zim boqsam, erta-yu kech ishdaman. Oyim bilan kun bo'y ni nima qilasizlar, hayronman. Kelgunimcha ovqat tayyor bo'isin, – deya zarda qilgan kunlarda, Nozila "miq" etmadi.

Kunlarning birida, uyqudag'i Nozilani kimdir turtib uyg'oldi. Cho'chib tushdi. Qarasa qarshisida pochchasi: tez tur oyimning mazasi qochib qoldi.

Ko'chaga chiqayapman, tez yordam keladi. Kutib olay, sen oyimga qara! Tur, tez! Shoshil! – degancha pochchasi uydan tashqariga otilib chiqib ketdi.

Nozila apil-tapil kiyinib, onasining xonasiga kirarkan, o'rinda bir ahvolda yotgan onasini ko'rib yuragi ezildi.

– Oyijon, qo'rqtamang meni. Nima bo'ldi sizga? – deya yig'lab yubordi. Bu orada tez yordam ham keldi. Bemorni tekshirgan shifokor, "insult" tashhisini qo'ydi. Va Nozilaning oyijonisini kasalxonaga olib ketdi. Nozila yig'lagancha uyda qoldi. Kelinoysi hamda akasi bilan uyda qolishni istamas edi. Chunki ularning fe'l tor. Dadasi chet elga ishlagani ketgan, opalari oyda bir kelsa keldi.


Onasi kasalxonada bo'lgan kunlarning birida, uyg'a akasining og'aynilarini keladigan bo'ldi. Bundan bexabar o'n yetti yoshili Nozila, hovlining bir chetida joylashgan o'zining maxsus ijodxonasiga kirib ketdi.

Bolaligidan rasm chizish, she'r yozishga qiziqqani uchun dadasi omborxonani bo'shatib, unga ijodxona qilib bergandi. U xayollarga berilgancha, she'r to'qib o'tirarkan, uy ichkarisida qolgan qo'l telefonini jiringlaganini ham eshitmidagi. Yarim soatlar o'tib, she'rini tamomlab qayta o'qib chiqayotgan damda, kelinoysi ishdan keldi. Derazadan uning kelganini ko'rsa-da, indamadi. Yozuv-chizuv bilan band bo'lib o'tiraverdi. Shu orada uy ichidan akasining jahl aralash gapirgani eshitildi. Nozila qo'rqbim eshitib o'tirarkan, kelinoysisining, – menga nima deysiz? Bir o'zim ulgurmayapman axir! Endi ishdan kelgan bo'lsam... Nozila qani? O'tirgandir, xonimicha, xonasida yalpayib... Singlingizga indamaysiz, mehmon kelsin-da, u yotsin. Men ish qilay-a? – deya javragani eshitildi. – Bor, chaqirib kel! – deya o'dag'ayladi akasi. Kelinoysi Nozilaning xonasiga kirib, – chiqing buyoqqa, hozir mehmon kelarkan... Ish ko'p, – dedi-ya, eshikni sharaqlatib yopdi.

Qiz kelinoysisining xurmacha qiliqlaridan to'yib yurgan ekan, axiri sabr kosasi to'lib-toshdi. Boz ustiga Nozila erka, mag'rur qiz emasmi? Endi u ham asabiyashdi. "Ilhomniyam beliga tepishdi", deya g'udranib hovliga otilib chiqdi-da, kelinoysisiga, – tinchlikmi, nega menga jahl qilasiz? Eshikni qarsillatib yopishga kim huquq berdi sizga? Yoki har kuni kelinlik vazifangizni do'ndirib bajardingizmi? Qo'lingizdan ish kelmasa, dangasa bo'lsangiz, men aybdormi?! Kelib, masalani to'g'rilikcha aytish mumkin edi-ku? – dedi. Jahli chiqib turgan akasi to'g'ri singlisining ustiga bostirib keldi. Yelkasiga bir tushurib, "o'chir ovozingni" deya o'shqirdi. Akasidan buni kutmagan Nozila, – sizga nima bo'ldi aka?! Mana shu xotiningizni deb, ota-onangiz ham, men ham ko'zingizga ko'rinxay qoldikmi-a! Oyim yo'qligida turkilashni boshladgingizmi?!

Xullas, aka-singil o'ttasida dahanaki jang bo'ldi.

Jahli chiqsa aql ketadi. Aka oshxonada qo'liga tushgan narsani singlisiga otaverdi. Bu ham etmagandek, jigargo'shasining boshiga zarb bilan



Ziliabonu XOLIQOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

urdi. Bechora qizni beliga qattiq tegpandi, gullar ekilgan tomorqaga uchib tushdi. Mitti favvoralar uchun o'rnatilgan temirga boshi bilan urildi-yu, butkul hushidan ketdi...

Voqeadean aqli shoshib qolgan kelin, qaynsinlisini asta turtdi. Qiz qimir etmasdi. AkaChalqancha ag'dardi-yu, dodlab yubordi. Nozilaning bir ko'zi oqib tushgan edi. Kuchli zarb bilan yuzturban mitti favvoraga urilgan edi. Ayni shu damda Nodirning oshna-og'aynilari darvozadan kirib, bu mudhish manzaraning guvohi bo'lishdi. Nozilani zudlik bilan shifoxonaga eltishdi. "Jonlantrish" bo'limi shifokori: afsuski, bemorni saqlqb qololmadik... Kuchli zarbdan miya suyagi singan, qon quyilgan, bel suyagi lat yegan, ko'z gavhari oqib tushgan. Tirik qolganda ham nogiron bo'lar edi...

Aka dong qotdi. To'g'riroq'i, bo'lib o'tgan voqeani idrok etolmaydigan darajada miyasi ishlamas edi. Shu payt hamshira chiqib, Nozilaning qonga belangan kiyimlarini Nodirga uzatarkan: mana bu qo'oz marhumaning cho'ntagidan chiqdi, deya qo'liga tutqazdi. Aka telbalday gandiraklab, qo'ozni titroq qo'llari bilan ocharkan, unda bejirim harflar bilan she'r bitilgan edi:

FARZAND BER

*Har narsaga qodirsan yo Rab,
Ko'p narsani qilmayman talab.
Charchamasman bir umr so'rab,
Akamga sen farzand ber, Xudo!*

*Har bandaning bo'lsin surriyoti,
Hech tutmasin ayol faryodi.
Shirin bo'lgay mevaning toti,
Akamga sen farzand ber, Xudo!*

*Kelinoyim ko'zyosh to'kmasisin,
Alamzada, zardob yutmasin.
Bu hayotda yolg'iz o'tmasin,
Akamga sen farzand ber, Xudo!*

*Volidamning yagona o'g'li,
Dadamning u dastyor, o'ng qo'li.
Baxtga eltgin ochilsin yo'li,
Akamga sen farzand ber, Xudo!*

*Egib qo'yma alp qaddini,
Malham bo'lib, olay dardini.
Yo'qotmasin elda qadrini,
Akamga sen farzand ber, Xudo!
Men ham amma bo'lamanmi, ayt?!*

*Irodamni ko'p sinashdan qayt.
Orzuyimdan yaralmoqda bayt,
Akamga sen farzand ber, Xudo!*

Mitti farishta

Nodir ko'chaga otilib chiqdi. Holsizlanib, yerga cho'kkaladi. Atrofga hissiz boqar ekan, yomg'ir tomchilari xuddi unga hamdarddek, yuzlarini ohista silar edi. Bo'g'ziga qadalib turgan faryod olamni tutdi: Nozila-a-a...

Ikrom USMON – tarix fanlari doktori Ikromiddin Ostonaqulovning adabiy taxallusni. Ilmiy faoliyat bilan birga ijod qilib turuvchi olimning “She’rlarim navo istar” nomli manzumalarini e’tiboringizga havola qilar ekanmiz, ular hofizlarga ilhom bag’ishlasa, ajab emas deb qolamiz.



Muhammad Yusufning ruhi so‘zlaydi

Haykalim poyiga kelsangiz,
Xush keldingiz, safo keldingiz.
Qadamning uchun ming qulluq –
Ko‘ngil ichra vafo keldingiz.

Haykalim poyiga kelsangiz,
Kelmangiz g‘amgin yo motamiy.
Tirik chog‘i Muhammad Yusuf,
Bo‘lgan edi serzavq odamiy.

Haykalim poyiga kelsangiz,
So‘z izlab turmaysiz chor-nochor.
O‘ng yelkamda Yulduz kuylagan,
“Xalq bo‘l, elim!” – duoim tayyor.

Haykalim poyiga kelsangiz,
O‘qib yurmang marsiya bizga.
Ruhimni shod aylay desangiz,
O‘ynab bering “Ayranchi qiz”ga.

Holim

Millionlar ichidan topgan gavharim,
Million jon ichidan topganim huzur.
Sen borsan – yashnagay o‘ksik jigarim,
Sen borsan – umrimga qo‘shilgay umr.

Kunduzi bo‘lurman mehring fanosi,
Tunlari erurman vasling gadosi.

Millionlar ichidan tanladi ko‘zim,
Sening ko‘zlarining ham tushdi ko‘zimga.
Payvand bo‘ldi rozim rozingga, Nozim,
Hardard bo‘ldi darding dardman o‘zimga.

Kunduzi bo‘lurman mehring fanosi,
Tunlari erurman vasling gadosi.

Qo‘llaringga boqib titraydi jonim,
Qo‘llaringda jamdir jisming jilosi.
Xat bitar chog‘ida yana ham jozib,
Bitsaydi shu qo‘llar ishqing inshosin...

Kunduzi bo‘lurman mehring fanosi,
Tunlari erurman vasling gadosi.

Nozigm

Oybodog‘im, gul dudog‘im,
Xush tabassum nozigm.
Kulgisi jonimga rohat
Xush takallum nozigm.

Xush tabassuming o‘zi
Lutfu ehsondir menga.
Ushbu davlat shukriga ming
Yig‘lagum yum, nozigm...

Xush takallum foni yermish –
Qildi ro‘zg‘orim qaro.
Erki o‘z qo‘lida bo‘lgan
Betarahum nozigm.

Mehribon muxlisi ming-ming –
Mehrima muhtoj emas.
Suhbatidan sho‘x kulib, u/
Qildi mahrum nozigm.

Nozigmning dargohida
Izzat-ikromim tamom –
Dildagi chin nozini, voh,
Qildi ma‘lum nozigm.

Izzat-ikromim ado deb,
Ey g‘arib, g‘am chekmagil.
Sen – tirik, ul sho‘x hayot –
Ko‘ngli ma‘sum nozigm.

Andisha

Ori yo‘q sevgim mening
etgannikan bemon seni,
Yuzi yo‘q ishqim diling
bezdirdimi, ey yor seni?

So‘zlarim, takliflarim
boshing uchun bir dardisar,
Aylabon diltang seni,
qilganmikan bezor seni?

Ko‘yingdadirman bir gado,
sendan vale yo‘qdir sado,
Vasling tamanno aylagay
devona bir beor seni.

Na qilay ishqim tushib,
yondim jamoling shavqida,
Yo‘lida o‘lsin deya
Haq aylamish dildor seni.

Niyatim, orzularim
rosti g‘ashingni qo‘zg‘atur –
Nomunosib kas deya
etmish hayot qahhor seni.

Bil, bu kun bemuddao
majnun eranlar qolmagan,
Stylamoq istar faqat
bir beqadr anhor seni...

Jahlidan behuda ranjib
qulchilikni etma tark,
Berkitib aybingni, ikrom
aylagay Sattor seni.

Hozircha men boring sening

Oftobjamolim, bekasim,
rostmidi iqroring sening...
Sabr ila bardoshing bilib
men bo‘lmisham zoring sening.

Hidlanmagan xushbo‘y gulim,
behannishin, bebulbulim,
Bemehribon, suvsiz chaman
bo‘lsang, men obdoring sening.

Mehru bilim ham togatim,
sadqa qiloyin sen uchun,
O‘lguncha men bo‘lsam qani
yolg‘iz xaridoring sening.

Intilganim bejiz emas,
yo nafs uchun, yo bir havas,
Darding oloyin beevaz –
hozircha men boring sening.

Bekasligindan injima,
xudbinligimdan ranjima,
Bilmay yasha ul g‘am nima,
bo‘lsin Xudo yoring sening.



Jo‘rabek OMONOV,
“Madaniyat va san‘at
muassasalarini tashkil
etish va boshqarish”
ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



Nima qildik, ona uchun?

Bizning ertamizni o‘ylab har kun,
Bizning kelajagimiz o‘ylab kun-u tun.
Kunlar o‘tib, ulg‘ayganimizda bugun,
Ayting do‘stlar, nima qildik ona uchun?

Doimo bizlarni asrab-avaylab,
Qayg‘urur har kun biz uchun ataylab.
Ulg‘aytirgan oq yuvib, oq tarab,
Ayting do‘star, nima qildik ona uchun?

Boshimizga tushganda bir musibat,
Qayg‘urur doimo onamiz faqat.
Onalarga ming bor aytaylik rahmat,
Ayting do‘stlar, nima qildik ona uchun?

Onani ta‘riflashga so‘z ham yetmaydi,
Ona bor uylardan fayz ham ketmaydi.
Mevasiz daraxtga tosh ham otmaydi,
Ayting do‘stlar, nima qildik ona uchun?

Erishgan yutuqlarimizga sababchi ona,
Barcha zafarlarimizga sababchi ona.
Hatto, yashashimizga sababchi ona,
Ayting do‘stlar, nima qildik ona uchun?

Oq sut berib halollikda o‘stirgan,
O‘zi yemay bolasiga yedirgan.
Hech kimdan kam bo‘lmasin degan,
Ayting do‘star, nima qildik ona uchun?

Duoga qo‘l ocharlar baxtimiz tilab,
Duoga qo‘l ocharlar taxtimiz tilab.
Baxtil bo‘l, deyishar boshimiz silab,
Ayting do‘stlar, nima qildik ona uchun?

Axir bizning baxtimiz shu onalar,
Bor boylig-u taxtimiz shu onalar.
Duoga qo‘l ochib baxtimiz tilab,
Ayting do‘star, nima qildik ona uchun?

Onalar bor go‘zaldir dunyo,
Onalarsiz zulmatdir go‘yo,
Onamsiz dunyo go‘yo riyo,
Ayting do‘star, nima qildik ona uchun?



E‘zoza KARIMOVA,
“Madaniyat va san‘at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta‘lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi



Abdusamat RISQITILLAYEV,
“San‘atshunoslik: sahna va
ekran san‘ati drmaturgiyasi” ta‘lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Shukronalik

Hovlingizda sayraganda qush,
Tinglang uning xonishlarini.
Takbir aytar, aytar istig‘for,
Ko‘ring, Haq deb yonishlarini.

Bizchi, bizlar qilmay murosa,
Oxirini o‘ylamaymiz ham.
Tinchlik nima, notinchlik nima,
Yot ko‘ngilni bo‘ylamaymiz ham.

Odamzodning kami bitmasmish,
Kun kelmayin g‘ami bitmasmish.
Qancha bedor g‘amga botsang-da,
Haqni desang, zavol tutmasmish.

Tabiat ham berolmas bardosh,
Haqsizlikning sitamlariga.
Muzlaringni eritar quyosh,
Eshdir bahor bayramlariga.

Ma‘yus ko‘zlar, ma‘yus nigohlar,
Ular har kun to‘kar bo‘lsa yosh.
Ko‘rgin dunyo qashshoq ellarni,
Ulardadir matonat, bardosh.

Neki isrof, uvoli tutar,
Qurg‘oqchilik, qayda sel kelar.
Ma‘yus ko‘zlar, ma‘yus nigohlar,
Sitamini boshqa kim bilar.

Shukr qilib bugun boriga,
Tinch osmonga boqib kuylayman.
Shu lahzada qaydadir urush!
Faryodlarning zahmin o‘layman.

Kulbalari vayron-u sarson,
Arosatda kechar umri ham.
Yozayapman ko‘zlarimda yosh,
Bu yosh asli butkul boshqa g‘am.

Tarozili dunyo ishlari,
Hisobini so‘rar kun bordir.
Yurtim sening ertang nurafshon,
Elim, sening toleying yordir.

Bir kun yetamiz baxtga

Kutib go‘zal damlarni,
Vafolar qilib ahdga.
Ishon, jonginam ishon,
Bir kun yetamiz baxtga.

Termulib ko‘zlaringga,
Oh, shirin so‘zlaringga.
Ishon, sevgilim menga,
Bir kun yetamiz baxtga.

Mayli afsona bo‘lmas,
Bu kamtarin sevgimiz.
Faqat senla ikkimiz,
Bir kun yetamiz baxtga.

Ayirmoqni istaydi,
Ko‘rolmaslar sevgimiz.
Tushunmaslar dardimiz,
Bir kun yetamiz baxtga.

Hayotimning har oni,
Seni sevib o‘taman.
Yurgin olib ketaman,
Bir kun yetamiz baxtga.



Mirjalol
MIRSAVLATOV,
“Madaniyat va san‘at
muassasalarini tashkil
etish va boshqarish”
ta‘lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi



Sabrina IBRAGIMOVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo’nalishi 1-bosqich talabasi



Sizga havas qilib...

Ilm – bebafo boylik. Uni egallash oson ish emas. Ulamolar, ilm olishni igna bilan quduq qazishga qiyos etadi. Imom al-Buxoriy hazratlari ham “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deb bejiz aytmag'anlar. Inson shunday bebafo xazinaning sohibi bo‘lishida, ustozning o‘rnı beqiyos. Men bugun mana shunday ilm olishdan hormaydigan-tolmaydigan, aksincha, bilim berishga ishtiyoqi baland ustozim haqida yozishga qaror qildim.

Ana shunday ustozlardan biri “Ssenariynavislik va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish” fani o‘qituvchisi Nilufar Zaripovadir. Ustoz 2014-yilda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” yo’nalishiga o‘qishga qabul qilingan. O‘qishning ilk kunlariданоq bilimga chanoqligi sababli, barcha ustozlarining e’tiboriga tushgan, mehrini qozongan. Institutda o’tkaziladigan turli mavzudagi tadbirlarni tashkil etib, boshlovchilik qilgan. Respublika hamda xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda o‘z maqolalari bilan ishtirot etib, faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan, diplom va sertifikatlar bilan taqdirlangan.

Talabalik davrida tahsil bilan bir vaqtida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2012-yilda tashkil etilgan “Dunyo bo‘ylab” telekanalida faoliyat yuritgan. Bir qancha mualliflik ko‘rsatuvlarda boshlovchilik ham qilgan. Bular “Dunyo kezgan tengdoshim”, “Bolalar sayyorasi”, “Turfa olam gul shaydolari”, “Borliq sinoati”, “Faol hayot” kabi ko‘rsatuvlardir. O‘z ishini sevganligi sababli, ishtiyoq bilan ishlagan. Kameradan qo‘rqmaysizmi, deb savol berishsa: “Yo‘q, aksincha kamerada o‘zimni erkin his qilaman. Hattoki, uya taom tayyorlayotganimda ham ko‘rsatuv tasvirga olinayotganday, o‘zimga o‘zim so‘zlab ovqat pishiraman. Bolaligimda onajonim ovqat tayyorlasalar, sabzavotlarni mafuron qilib so‘zlar edim”, – deya javob bergan.

Ustoz Nilufar Zaripova, 2001-yil “Onalar va bolalar” yiliда “Istiqlol g‘unchalari” nomli ko‘rik-tanlovida qatnashib, grampri sohibasi bo‘lgan.

2007-yil “Zulfiyaxonim” ko‘rik-tanlovida 1-o‘rin, 2008-yil “Notiqlik san’ati” respublika ko‘rik-tanlovida faxrli 1-o‘rinni egallagan. 2017-yil Prezidentstipendiyasiga tavsija etilgan. Talabalik davrida O‘zbekiston davlat Qurolli kuchlar akademiyasidagi tadbirlarda ham boshlovchilik qilib, ko‘krak nishoni hamda diplom, sertifikatlar bilan taqdirlangan. Shuningdek, G‘afur G‘ulom nomidagi istirohat bog‘ida bo‘lib o‘tgan ko‘plab tadbirlarda, ustoz boshlovchilik qilgan.

Jumladan, “Buyuk Sohibqironni yod etib” nomli madaniy-ma‘rifiy tadbir, “O‘lan aytgali keldik” an‘anaviy folklor san’ati tadbiri, “Ulug‘bek yulduzlar” vokal cholq‘u ansambl xonandalarining jonli ijrodagi konserti, “Xush kelding, Navro‘z” bayram tadbiri, “Barhayot siymolar” turkumidan O‘zbekiston, Turkiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-musiqiy xotira tadbirlari ssenariysini o‘zi yozgan va boshlovchilik qilib, istirohat bog‘ining rahbariyati tomonidan faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

U O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasida boshlovchilik qilibgina qolmay, bir qancha serial va kinolarda ham rol ijro etgan. Jumladan, rejissyor Zamira Begimqulovaning “Ko‘klamoy” nomli filmida bosh rol Ko‘klamoyimni ijro etgan. Shuningdek, “Opa-singillar”, “Hayot”, “O‘tkinchi dunyo” kabi ekran mahsullarida turfa xarakterdagи obrazlarda namoyon bo‘lgan. Ustozning 2017-yil “Teleko‘rsatuvarlar va bayram tadbirlari uchun ssenariynavislik san’ati” nomli o‘quv qo’llanmasi nashr etilgan.

2018-yilda bakalavr ta’lim yo’nalishini imtiyozi qizildiplomdatamomlab, xuddishuyili O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Madaniyat sohasi menejmenti” magistratura yo’nalishiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi. Magistraturani ham imtiyozi qizil diplomga tamomlab, 2021-yil “Oila va xotinqizlar” ilmiy-tadqiqot institutiga doktaranturaga qabul qilingan. 2021-2022-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritgan. To‘qsondon ortiq ilmiy maqolalari chet el jurnal va to‘plamlarida nashr ettilrilgan. Respublika hamda xalqaro miqyosida o’tkaziladigan ilmiy anjumanlarda faol ishtirot etib, o‘zining bilim va iqtidorini namoyon qilib kelmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida o’tkazilgan respublika hamda xalqaro ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyalarda faol ishtirot etib, sertifikat, diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Uning “Maqsad sari intilaylik, muvaffaqiyat kaliti o‘z qo‘limizdadir”, “Keksalarni e’zozlash – mentalitetimizga xos fazilat”, “Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda oilaning ta’siri”, “Yosh avlodning ilmiy salohiyatini yuksaltirishda oilaning ta’siri”, “Guruhlarda rahbarlik, liderlik va super liderlik xususiyatlari”, “Bolalarni axloqiy hamda estetik tarbiyalashda milliy qadriyatarning o‘rnı”, “Rahbarning tashkilotchilik qobiliyatları namoyon bo‘lishida tafakkurning roli”, “Chet tilini o‘qitishning pedagogik hamda psixologik xususiyatlari”, Yosh rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini va qobiliyatini shakllantirishning ahamiyati”, “Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari va tamoyillari”, Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda oladagi qadriyatarning ta’siri”, “Barkamol avlodning shakllanishida oila tarbiyasining o‘rnı”, “Boshqaruvning rivojlanish tarixi va hozirgi kundagi ayollar boshqaruvi

holatiga tizimli yondashuv”, “Boshqaruv mahoratini oshirish va Sharq allomalarini merosini o‘rganishga oid masalalar”, “Yoshlarning sog‘lom tur mush tarzini shakllantirishda ‘Sharq ma‘naviy tafakkuri g‘oyalaridan foydalanish masalalari’, “Guruhlardagi rahbarlik va liderlik xususiyatlari” kabi mavzulardagi chiqishlarida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, O‘zbekistonni yanada rivojlantirishda Harakatlar strategiyasining ustuvor yo’nalishlarda belgilangan vazifalar, madaniyat va san’at sohasiga oid muammolar yechimi borasidagi teror fikrlari qimmatlidir.

Nilufar Zaripova 2022-yil 27-mart sanasida, Turon fanlar akademiyasining “Faxriy akademigi” unvonini olgan. 2022-yil 23-sentyabrdan esa, YUNESKO hamda BMT qoshidagi milliy maqomga ega Afina falsafa akademiyasi tasarrufidagi jahon falsafasi forumi prezidiumining qaroriga asosan “XXI asr yer fuqarosi” unvoni bilan taqdirlanadi. Ustoz 2022-yildan e’tiboran, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Ayni damda mazkur institutda “Ssenariynavislik hamda ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish”, “Mutaxassislikka kirish”, “Rahbar imidi va etiketi” kabi fanlardan talabalarga saboq bermoqda. Ushbu fanlardan o‘quv-uslubiy majmular, fandasturlarini, amaliy ishlanmalarni tayyorlagan. O‘quv mashg‘ulotlarida yangi pedagogik texnologiya usullaridan keng foydalanib, sohada kechayotgan izchil o‘zgarish va yutuqlarni, ilmiy, ijodi yangiliklarni yetkazib boradi.

Men Nilufar ustozimning faoliyatiga qiziqishimni sababi, ustozimga havas qilaman. Kelajakda men ham shu insondek ko‘plab ilmiy-amaliy anjumanlarda, respublika hamda xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda, tadbirlarda ishtirot etib, qator diplom, sertifikatlarni qo‘lga kiritishni o‘z oldimga maqsad qo‘ydim. Nilufar Zaripova darslarni juda qiziqarli, ko‘tarinki ruhda o‘tadi. Darsda o‘quvchilarni o‘qishga, aktyorlik mahoratiga, ssenariy hamda maqolalar yozishga undaydi, faollikka cahqiradi. Institutimizda shunday bilimdon ustozlar bor ekan, biz ham o‘qib o‘rganishga zo‘r ishtiyoq bilan yondashamiz va ulardek bo‘lishga intilamiz. Bejiz “Ustoz yo‘l yorituvchi mash‘ala”, deyishmas ekan. Men O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining talabasi bo‘lganimdan, shunday jonkuyar, fidoyi, talabchan ustozlardan tahlis olayotganidan faxrlanaman. Ustozlar haqida so‘z ochilganda, hazrat Alisher Navoiyning baytlaridan oshirib bir so‘z aytmoq mushkuldir.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitishish ranj ila, Aylamat bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Shunday ekan, qadrii talaba-yoshilar! Barchamiz ustozlarni qadrlab, doimo ularga hurmat-ehtiromda bo‘laylik. Zero, ustoz – ulyg’ zot!

Mukammallikning asosi – yaxshi ustoz tarbiyasi

Mehnatsevar xalqimizning go‘zal odatlaridan biri, bu ustoz-shogirdlik an’analardir. Qadimdan “ustoz-shogird”lik an’analardan ustoz shogirdiga faqat yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma beribgina qolmay, o‘z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o‘zidan keyin ish-tajribani, bilim va mahoratni avloddan avlodga o‘tishiga imkoniyat yaratgan. Ustoz-shogirdlik tushunchasi yuksak milliy qadriyatlarimizdan hisoblanib, bunda asrlar davomida shakllangan tartib-qoidalarga amal qilib kelinadi. Shu xususda, Olimpiada championi, O‘zbekiston iftixori Bahodir Jalolovning fikrlariga qulq tutamiz.



– Har bir sohada yuqori natijalarga erishishning eng muhim omillaridan biri, albatta, yaxshi ustoz yo‘lida tarbiyalanmoqdир. Xalqimizda “Ustoz – otangdek ulug” degan gap

bor. Sportda yuksak marralarga erishishimda ustozlarimning hissasi beqiyos. Ustozlarimiz bizga nafaqat sohada, balki hayotda ham o‘zlarining bilim va tajribalarini

Dilnoza CHO‘LIYEVA,
O‘zDSMI magistranti

o‘rgatib kelishgan. Shogirdlarining yaxshi natijalarga erishib, millat bayrog‘ini yuqorida ko‘tarishlari har bir ustozning olyi maqsadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. To‘lqin Qilichev, Farruh Qilichev, Rustam Saidov kabi ustozlarimizdan soha sirlarini o‘rganib kelmoqdamiz. Ularning o‘z o‘rnida qo‘llagan qattiqqo‘llik va talabchanliklari ishimizning mukamalligini ta’minlaydi. Yurtimiz sha’nini himoya qilib, jahon shohsupasini zabt etishda ustozlarning xizmati juda katta. Yaxshi ustoz ko‘rgan shogird nafaqat yaxshi inson, balki jamiyatga foydasiga tegadigan malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi aniq, – deydi suhbatda Bahodir Jalolov.

Yuqoridagi fiklardan ko‘rinib turibdiki, har qanday sohada, jumladan, sportda ham mukammallikka erishishning asosi, yaxshi ustoz yo‘lida tashsil olishdir. Boks bo‘yicha bu yilgi Jahon championigiga Toshkent shahri mezbonlik qilmoqda. Sportchilarimizga ulkan zafarlar tilab qolamiz!

Ustozga ta'zim!

Hayotning u yoki bu sohasida,
Borsan har yumushning sarlavhasida.
Rahmatlar olqishlar senga aslida,
Unutma, har lahza ustoz yaxshisan.
Sen bugun kelajak avlod naqshisan!

Kelajak avlod inson hayotiga baho berar ekan, uning qanchalik uzunligiga emas, balki qanchalik mazmunli ekanligiga ahamiyat qaratadi. Shu sababli ham inson dunyoga kelibdiki, o'z aql-zakovati va mehnati bilan insoniyat tarixida o'ziga xos iz qoldirishga harakat qildi. Shunday insonlar borki, hayotga chaqmoqdek kirib keladi, vaqt mobaynida o'z faoliyatini shijoat bilan sermazmunlikda davom ettiradi.

Hayot muallimi

Nozima ULUG'JAVA,
O'zDSMI Nukus filiali "Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"
3-bosqich talabasi,
Islam Karimov nomli Davlat stependiyasi sohibasi

HAYAL-QIZLAR KUNI



Xuddi shunday o'zining dono fikrleri, o'zgacha dunyo qarashi, mas'uliyatliligi, o'z kasbini sevishi, jonkuyarlligi bilan oliyoghimiz yoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan, har bir talabani jon qulog'i bilan tinglaydigan, talabaga o'z farzandidek mehr ko'ssatoytgan, pandu nasihatlarini ayamaydigan inson bu, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali katta o'qituvchisi, xotin-qizlar masalalari bo'yicha direktor o'rinnbosari O'rolxon Qidirniyozova bo'ladi. Ustoz institutdagagi ish faoliyatini 2009-yilden boshlagan bo'lsa-da, faoliigi, o'z kasbiga fidokorligi sababli, yildan-yilga yuksalib, yuqori natijalarga erishgan. Mehnat qilgan rohatini ham ko'radi, deganlaridek yillarda davomidagi mehnatlar evaziga: "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi" esdalik nishoni, O'zbekiston Respublikasi bosh prokurorining tashakkurnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'ta maxsus ta'lif vazirligining faxriy yorlig'i, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi faxriy yorlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining minnatdorchilik xati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi minnadorchilik xati, Shimoliy-G'arbiy Harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligining faxriy yorlig'i, shuningdek, kuni kecha yurtimizda bo'lib o'tgan "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri Ibrohim Abdurahmonov tomonidan tashakkuurnoma hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi Amanbay Orinbayev tomonidan "Vatan fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ustozimizning ushbu yutuqlari biz uchun ham quvonchli holat, albatta. Negaki, uning har bir bosgan qadami, qiyinchiliklari, izlanish va intilishlari biz shogirdlar uchun tajriba maktabidir. Shu kunga qadar juda ko'plab yoshlar o'z iste'dodlarini, iqtidor va tashabbuslarini yuzaga chiqarishda, turli respublika tanlovlari, ilmiy konferensiya va seminarlarda faol qatnashib, yetakchi o'rnarni qo'lg'a kiritmoqda. Ustoz O'rolxon Qidirniyozova, faol talabalar uchun beriladigan Prezident davlat stependiyantlari, Yil talabalarini kashf etishda ma'naviy ko'mak berib kelmoqda. Biz ustozdan juda ko'p bilim va tajribalar olish bilan bir qatorda, har bir ishda mas'uliyat bilan yondashishni, vatanga muhabbatli, xalqqa sadoqatli, fidoyi bo'lismi o'rganamiz.

Ustozlarimiz biz uchun faqatgina ta'lif beruvchi shaxsgina emas, balki hayotda "hayot muallimi" hamdir. Ya'ni, o'qituvchi faqat o'qituvchi vazifasini bajarmaydi. Zarurat bo'lganda, biz uchun chin do'st, yaxshi suhbatdosh, mehribon ota-onasi vazifasini o'taydi. Ustozlar haqidagi har qancha so'zlasak, shuncha oz. Biz shogirdlar ustozlar qarshisida doimo ta'zimdamiz!

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDSHEV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV

Mas'ul kotib:
Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrirlar:
Iroda BERDIYEVA
Saida ERGASHEVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV



AYOL MATONATI

Kinotaqdimot



Yaqinda Alisher Navoiy nomidagi kinochilar uyi tomoshabinlar bilan gavjum bo'ldi. Chunki hafta davomida bir qator yangi filmlar namoyishi bo'lib o'tdi. Biz quyida tomoshabinlar hukmiga havola etilgan shunday badiiy kinokartinalardan biri, "Sudya" filmi haqida so'zlamoqchimiz.

So'zimizning avvalida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashabbusi, Kinematografiya agentligi buyurtmasiga asosan "Dilshoh media" studiyasi tomonidan suratga olingan "Sudya" badiiy filmi boshqa kartinalardan nimasi bilan ajralib turishiga to'xtalib o'tsak. "Sudya" filmi bosh qahramoni Aziza timsolida, yurtimizda faoliyat olib borayotgan barcha ayol sudyalar obrazi umumlashtirilib olingan, deyish mumkin. Tan olib aytish kerak, odatda biz kundalik hayotda ko'rib o'rgangan suda ayollar ko'pchiligidan qo'shildi. Biroz qattiqko'l, biroz dimog'dor va yana biroz mehri qattiqroq ayol timsolida gavdalaniadi. Aslida ham shundaymi?

"Sudya" filmini ko'rgan tomoshabin birinchi navbatda ana shu savolga javob izlaydi va uni topadi. Ishxonadagi sudya xonim uya ertalab turib hovli supuradigan oddiy ayol, qaynona-qaynotaning hurmatini joyiga qo'yadigan oddiy kelin, turmush o'tog'ining injqliklarini, farzandlarining erkaliqlarini ko'taradigan oddiy ayol va ona. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. "Sudya" filmi ijodkorlarining birinchi yutug'i tomoshabinni ana shu oddiy haqiqatga ishontira olganidir.

Sudya libosi va hakamlik kurasidagi Aziza orzu-havas, ko'ngil mayli, o'tkinchi ishq-muhabbat deya oila atalmish muqaddas munchoqning rishtalarini uzb, farzandlaridan voz kechayotgan ota-onalar mojarosi yoki otasini xo'rlab, mol-mulk talashayotgan

o'g'illar ishini qonun doirasida ko'rар ekan, hamisha uning ko'z o'ngida otasiz o'tgan yoshligi namoyon bo'laveradi...

Iste'dodli va iqtidorli yosh kinossestarlari Sardor va Bobur Hamroyevlar ssenariysi asosida yaratilgan ushbu film, Aziza obrazi orqali mazkur kasb egalarining ish faoliyati va shaxsiy hayotini chuqur yoritib bergan. Film ijodkorlari tomoshabinlar nazarida sovuqqon va his-tuyg'uغا begona ko'ringan suda ayolning ichki kechinmalarini, ayrim lahzalarda ular ham hayot zarbalari oldida ojiz qolishi mumkinligiga ishontira olishgan.

– Filmni tomosha qilar ekanman, ayrim joylarida ko'zimga yosh keldi. Sudya ayol hayoti, ish faoliyati haqida hikoya qiluvchi ushbu filmda kasbdosh ayollarimiz o'z shaxsiy muammolarini, o'z hayotini ko'rishi mumkin. Chunki unda har kuni ish faoliyatimiz davomida duch kelishimiz mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolar yoritilgan. Shu bilan birga filmda sudya ayollarning ham boshqa fuqarolar singari oilasi, farzandlari, qaynona-qaynotasi borligi,

ularning xizmatini qilishi, hummatini joyiga qo'yishi, shu bilan birga mahalla-ko'y oldida o'z obro'sini saqlashi, ba'zi mahalladoshlarining tushumrovchiliklari bartaraq qilishi – barcha-barchasi qamrab olingan, – dedi taqdimotda qatnashgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o'rinnbosari Robaxon Mahmudova.

– Biz "Sudya" filmi premyeserasiga turmush o'tog'im va qizim bilan

Farg'onadan keldik, – deydi tomoshabin Rahimaxon hoji ona Mamamatova. – Filmni tomosha qila turib ko'nglimda bir qoniqish tuydim. Nihoyat bizda ham oila davrasida jam bo'lib, uyalmasdan ko'rsa bo'ladijan filmlar ishlana boshlabdi. To'g'risini aytganda, tomoshabinlar qaynona-kelin, boy qiz va kambag'al yigit yoki aksincha, boy yigit va kambag'al qiz kabi siyqasi chiqqan mavzularдан charchab ketdi. Bu filmni ko'rib, ko'ngil mayliga qulog tutib gulday farzandlarini tashlab ketayotgan, birovlarning oиласини buzayotgan, boylik ilinjida jigarlar bilan meros talashayotganlar o'zi uchun kerakli xulosa chiqaradi, deb o'layman. Agar men shu filmning yaratilish jarayonida ishtirok etganimda, shubhasiz, uning nomini katta harflar bilan yoziladigan "Ayol matonati", deb atagan bo'lardim...

Keyingi paytda o'zining qator filmlari bilan xalqqa manzur bo'layotgan rejissyor Dilmurod Masaidov, yosh kinossestarlari Sardor va Bobur Hamroyev, taniqli aktrisa va aktyorlar Erkin Komilov, Muhabbat Abdullayeva, ayniqsa, sudya ayol Aziza rolini maromiga yetkazib ijro etgan ShodiyaAbduqodirova, grim ustasi Zilola Sobirova va operator Anvar Adilovlarning mohorati film saviyasini yanada yuksaltingan desak, mubolog'a bo'lmaydi. Biz film ijodkorlariga tomoshabinlar o'lqishiga sazovor bo'ladijan xalqchil sahna asarlar yaratishdek mashaqqatli va mas'uliyatli ishlarda ijodiy parvozlar tilaymiz.

QANOAT QIL...

Hikmat

Biyuk yozuvchi Lev Tolstoy 22 yoshida o'zi uchun hayotiy tartib-qoidalar tuzadi va unga butun umr amal qiladi. Iroda, faollik, xotira va aqliy qobiliyatni rivojlantiradigan bu yo'riqlar sizu bizga ham katta foyda berishi aniq.

- Har qanday jismoniy mashaqqatga chida, qynalganingni boshqalarga bildirma.
- Har kun zaifroq biladigan tilingda she'r yodla.
- Qo'lingdag'i mulkning o'ndan birini ehson qil.
- O'n barobar boyib ketsangda, hayot tarzingni o'zgartirma.
- Har qanday narsaga har tomonlama nazar sol – foydasini ham, zararini ham ko'r.
- O'zing bilmagan yoki yoqtirmaydigan odamlarning maqtovini olishga urimma.
- Har tong kunlik reja tuz va uni albatta bajar.
- Boshqalarning fikrini o'ylab o'tirgandan ko'a o'z ustingda ko'proq ishla.

- Shuhrat uchun sarf-xarajat qilma.
- O'zing uchun iloji boricha ko'p mashg'ulot o'ylab top.
- Bir o'zing yakunlashing mumkin bo'lgan ishga yordamchi talab qilma.
- Hech qachon hissiyorlarining oshkor qilma.
- Yaqin kishingni o'zingday yaxshi ko'r, ikki yaqin kishingni esa o'zingdan ham ko'proq yaxshi ko'r.
- Har tun kunduzi o'rganganlarining takrorla.
- Ortiqcha narsangni o'zing uchun emas, jamiyat uchun ishlat.
- Yaxshi bo'l va sening yaxshi ekaningni hech kim bilmasligiga intil.
- Sharoit qancha yomon bo'lsa, harakatni shuncha kuchayit.
- Bor narsalarga qanoat qil.
- Biror ishni boshlasang, oxiriga yetkazmay tashlab ketma.
- Yaqinlaringning hayoti shirin bo'lishiga hissa qo'sh.

Gazeta institutting tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'ichami – A3, hajmi 4 bosma taboq. Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda. Chop etishga 1.05.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrdan ro'yxatga olingan.

Gazeta oyning oxirgi haftasida "KAMALAK PRESS" MChJ bosmaxonasida chop etiladi. Manzil: Navoiy ko'chasi 30-yu.